
“Odam savdosi davr muammosi” mavzusida davra suhbatlari boʻlib oʻtdi!

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litsey oʻquvchilariga jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish hamda global muammolardan biri boʻlib turgan odam savdosi hamda uning oqibatlari haqida oʻquvchilarga tushunchalar berildi.

Suhbat davomida Samarqand shahar IIB xodimi inspektor, psixolog, mayor B.B Umurzoqov oʻquvchilarga jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish va giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar hamda kuchli taʼsir qiluvchi preparatlarning zarari va noqonuniy aylanishi, qonunan qaʼtiyan man etilgani hamda har bir jinoyatga javobgarlik muqarrarlari haqida tushunchalar berdi.

Yigʻilishda SamDCHTI akademik litseyi birinchi va ikkinchi bosqich oʻquvchilari, akademik litsey yoshlar bilan ishlash boʻyicha direktor oʻrinbosari F.Ibragimov, Samarqand shahar IIB boʻlimidan inspektor psixolog mayor B.B Umurzoqov, Yoshlar ittifoqi yetakchisi O.Yaxshiboyevlar ishtirok etishdi.

